

Tursunqulov Inom Abduhalilovich

Sambhram universiteti dotsenti

QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV MEXANIZMINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda ishlab chiqarish jarayonining tahlili, qurilish korxonalarida boshqaruv mexanizmini tashkil etish mexanizmlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari, ishlab chiqarish korxonalari, mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, diversifikatsiya siyosati.

Турсункулов Ином Абдухалилович

Доцент Университета Самбхрам

ОРГАНИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация: В данной статье представлен анализ производственного процесса в Узбекистане за последние годы, информация о механизмах организации управления на строительных предприятиях.

Ключевые слова: строительные материалы, производственные предприятия, повышение качества продукции, повышение конкурентоспособности, политика диверсификации.

Tursunqulov Inom Abduhalilovich

Associate professor, Sambhram University

ORGANIZATION OF THE MANAGEMENT MECHANISM IN CONSTRUCTION ENTERPRISES

Annotation: this article provides information on the analysis of the production process in Uzbekistan in recent years, on the mechanisms of organizing the management mechanism at construction enterprises.

Keywords: building materials, manufacturing enterprises, product quality improvement, Competitiveness Enhancement, diversification policy.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ishlab chiqarish, umuman sanoat boshqarish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, boshqaruv mexanizmini takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunda dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlari tajribasidan foydalanishga keng o'rin ajratilmoqda. Boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirishga yangicha yondashuvlar yo'lga qo'yilmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, diversifikatsiya siyosatini, modernizatsiyalashni amalga oshirish va boshqalar shular jumlasidandir. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga alohida e'tibor qaratilgan. Farmonda ko'rsatilgan vazifalarni samarali hal etishda, ayniqsa sanoat, jumladan qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'idagi vazifalarni hal etilishi boshqaruv mexanizmini xorij standartlari asosida takomillashtirish belgilab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv faoliyati va boshqaruv mexanizmi sanoatning rivojlanishi, uning samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli ushbu faoliyat doimo takomillashtirilishi zarurdir. Bunda uni tashkil etish mexanizmi, umuman olganda ayniqsa, boshqarish mexanizmini zamon talablarida kelib chiqib, rivojlantirish lozim.

Bozor mexanizmi bilan boshqaruv mexanizmi nazariya va amaliy nuqtai nazardan mos holda rivojlanishini ta'minlashda ularning qonuniy tomonlari, usullari, funktsiyalari, tashkiliy tuzilmasini o'rganish va takomillashtirilib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ularni korxona darajasida tadqiq etish hozirgi davrda ahamiyatli vazifadir. Ayniqsa boshqaruv mexanizmining nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq etishda oldingilari bilan taqqoslash va bu borada ularni rivojlantirish iqtisodchi olimlarimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Bundan tashqari, bozor munosabatlari sharoitida tovar-pul munosabatlari, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, ularni boshqaruv mexanizmini elementlari bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etish va bu borada qarorlar qabul qilish boshqaruv mexanizmining samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

Barcha iqtisodiy jarayonlar boshqaruv mexanizmini tartibga keltirish asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, boshqaruv mexanizmi - bu keng ma'noda bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, ularning umumiylikni saqlagan holda boshqaruv ob'ektida amalga oshirilayotgan jarayonlarning samaradorligini belgilaydi.


Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari jamoasining yoki alohida olingan tarzda ishchi-xodimlarning faoliyati natijadorligi bu korxonadagi boshqaruv mexanizmi samaradorligini anglatib, uning baholanishini korxonadagi ish (mehnat) jarayoni yakunlari bo'yicha amalga oshirishi mumkin. Bitta ishchi-xodim faoliyatining natijadorligi amalga oshirilgan ishning, belgilangan vazifalarni bajarish to'liqligi va sifati ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Korxonadagi mehnat jamoasi faoliyatining natijadorligini oshirishda quyidagilar juda muhim deb hisoblanadi:

- ishchi-xodimlar korxona maqsadi va missiyasini qo'llab-quvvatlashlari;
- jamoada va umuman butun korxonada o'zlarining tutgan o'rinlarini yaxshi anglab yetishlari;
- o'z bilimi, malakasi va ko'nikmalarini rivojlantirib, kasbiy kompetentsiyalarini oshirib bora bilishlari;
- qulay ish joyiga va o'z vazifalarini bajarish uchun zaruriy asbob-uskuna hamda qurilmalarga ega bo'lishlari;
- zaruriy axborotlarni ola bilishlari;
- o'z xizmat vazifalari va bajargan ishlari uchun ma'sul bo'la bilishlari kerak.¹

Ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa barcha xo'jalik sub'ektlari singari Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini baholashda hisobga olinishi zarur bo'lib sanaladigan mehnat faoliyati natijadorligiga va umuman, boshqaruv mexanizmi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ular quyidagidek bo'lishi mumkin (1-rasm).

¹Коломыц О.Н., Прохорова В.В. Экономика знаний - базис для развития инновационной экономики // Представительная власть — XXI век: законодательство, комментарии, проблемы. - 2017. - № 2-3 (153-154). - С. 55-58.

**KORXONADA BOSHQARUV MEXANIZMI SAMARADORLIGIGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR GURUHLARI**



**1-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati korxonalarida
boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi.**

Bular asosida har bir ta’sir ko’rsatuvchi omillarning mazmun-mohiyati, ularning ta’sir ko’rsatish doirasi va imkoniyatlarini belgilash mumkin bo’ladi. Shunga ko’ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish samaradorligini oshirish yo’nalishlaridan biri sifatida mazkur mexanizmni qo’llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shunday qilib iqtisodiyotimizning hozirgi rivojlanish davrida boshqaruv mexanizmini tizim sifatida tadqiq etish nafaqat uning metodologik jihatlarini, balki amaliy tomonlarini ham takomillashtirishga asos bo’ladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog’i, uning korxonalarida katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga ushbu sohada barcha muammolar o’z yechimini topdi deb bo’lmaydi. Ayniqsa boshqaruv sohasida bir qator masalalar mavjud. Masalan, korxonalarda korporativ boshqaruv usulidan foydalanish,

boshqaruv munosabatlari va elementlarini takomillashtirish, korxona boshqaruv personalidan unimli foydalanish, boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda mehnatni tashkil etish va boshqalar shular jumlasidandir. Ularni o'rganish va tadqiq etishda xorijiy tajribani qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Минцберг Г. Структура в кулаке. Создание эффективной организации. – СПб.: Питер, 2003.
2. Galbreith R. Jay, Lawler, Edward E and associates. Organizing for the Future. San-Francisco, 1993, p-310.
3. Катькола В.С. Исходные концепции стратегического управления и их современная оценка. Российский журнал менеджмента. 2003, № С7-300.
4. Пренникин В.В. Стратегическое управление финансово-экономического кризисных условий. Диссертация кандидат экономической наук. – М., 1999 г.
5. Турсункулов И.А. Бошқарув механизми мазмун-моҳияти ва унинг назарий-амалий жиҳатларини такомиллаштириш. Таълим, фан ва инновация. Маънавий-маърифий илмий-услубий журнал. 2021/5-сон
6. Tursunqulov I.A. Tashkilotlarda kompleks boshqaruv mexanizmi. Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami 2- qism (2022 yil 8-9-aprel)